

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Eshitish qobiliyati zaif bolalarda koxlear implantatsiyadan oldin va keyin ogiz bo'shlig'ining morfo-funksional xolatini o'rganish hamda kompleks rehabilitatsiya dasturini ishlab chiqish 	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - yaratilgan rehabilitatsion dastur yordamida eshitish qobiliyati buzilgan bolalarda jarroxlik koxlear implantant qo'yilguncha va qo'yilgandan keyingi holatlarda og'iz bo'shlig'i va tish jag' tizimi morfo-funksional holati innovatsion usullarda baholanadi; - koxlear implantatsiya bir tomonlama yoki ikki tomonlama o'tkazilganda tish jag' tizimiga ta'siri qiyosiy baholanib, individual holati tahlil qilinib, optimal rehabilitatsion dastur tanlanadi; - yangi an'anaviy va noan'anaviy usullardan foydalanib, shu guruhdagi bolalarni jamiyatga sog'lom bolalar qatoriga kirg'izishga me'yorlar ishlab chiqiladi; - eshitish qobiliyati zaif bolalarda koxlear implantatsiyadan oldin va keyin ogiz bo'shlig'ining morfo-funksional holatini Respublikamizning barcha xududlarida o'rganiladi va rehabilitatsion dastur asosida sog'lomlashtirish bosqichlari muddati qisqartiriladi; - eshitish qobiliyati zaif bolalarda koxlear implantatsiyadan oldin va keyin ogiz bo'shlig'ining morfo-funksional xolatini o'rganish hamda kompleks rehabilitatsiya dasturini ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Ijtimoiy himoya milliy agentligi va Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida sinovlardan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sog'liqni saqlash vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.